

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-8/1**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

МУНДАРИЖА  
ЭЪТИРОФ

Шомуродов Х.Ф., Абдуллаев И.И., Турдибоев О.А. Зокиров Пулат Қодирович таваллудининг 90 йиллиги .....	5
<b>БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Akramov I.B.</b> Ceratoides ewersmanniana – ekstremofil endofit bakteriyalarning yangi manbayi	11
<b>Atajanova Sh.M., Babadjanova Sh.K.</b> Approaches to adaptation to climate change in the Aral sea basin .....	14
<b>Jumaboyev G'.Sh., Maxkamov T.X.</b> Invaziv o'simlik Vaccaria Hispanica – ispan mingboshini o'rganilish tarixi .....	18
<b>Mamatova I.Yu.</b> Ayrim biologik faol moddalarining molekulyar xususiyatlari va dorilarga o'xshashligi .....	22
<b>Mahammadiev Z.N., Daminov A.S., Safarova F.E., Mukhtorov B., Chutbaeva F.B.</b> Cypriniformes cestodas in artificial water reservoirs of samarkand region taxonomic analysis .....	25
<b>Muhammadiyev Z.N., Daminov A.S.</b> Samarqand viloyatining sun'iy suv havzalarida yetishtirilayotgan karpsimon baliqlarni sestodalar bilan zaralanish dinamikasi .....	30
<b>Narboyev Z.O'., Abdusharipova M.X., Ro'ziboyeva M.Sh.</b> Sholi poya dalasi tuprog'idan laboratoriya sharoitida zooplankton organizmlarni aniqlash uslublari .....	32
<b>Rayimov A.R., To'raev M.M., Rustamova M.A.</b> Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda sudralib yuruvchilarning tur tarkibi va soni .....	35
<b>Raxmanov B.K., Imamxodjayeva A.S., Ubaydullayeva H.A., Usmonov D.E., Mirzaxmedov M.H., Shermatov Sh.E., Buriev Z.T.</b> Artemisia annua L. o'simligi tarkibida qimmatli artemizinin moddasini sintez qiluvchi genlarni o'rganish va ular asosida genetic vektorlar tuzish .....	41
<b>Rayimov A.R., To'raev M.M., Toshev H.M., To'rayeva N.M.</b> Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning tur tarkibi va soni .....	44
<b>Turemuratova G.I., Kurbanova A.I., Nagmetov H.S.</b> Parasitic state of hydrobionts of the Southern Aral sea region .....	48
<b>Yunusov X.B., Muhammadiyev Z.N.</b> Samarqand viloyatining ayrim suv havzalaridagi baliqlarni sestodalar bilan zararlanish dinamikasi va ularni oldini olish chora tadbirlari .....	53
<b>Axmedov X.A., Muradullaev A.M.</b> Тошкент вилояти шароитида Cynara scolymus L. (тиконли артишок) доривор ўсимлиги экилган даладаги бегона ўтлар .....	57
<b>Бабаджанова С.Х., Абдурахимов У.К., Ваисова Д.Б.</b> Хоразм вилояти тупроқ-иклим шароитида сано (Cassia acutifolia Del. va Cassia angustifolia Vahl.) турларининг унувчанлиги ва ўсиш энергияси .....	59
<b>Бекмуратова Д.М., Мамбетуллаева С.М.</b> Оценка экологических параметров Micromammalia в условиях демутирующих экосистем Приаралья .....	63
<b>Давлетмуратова Б.Т., Матжанова Х.К.</b> Биоэкологические особенности Ferula assa-foetida в условиях Южного Приаралья .....	66
<b>Қулмаматова Д.Э., Бабоев С.К., Холлиев О.Э., Тохирбоева Д.У.</b> Ясмиқнинг коллекцион намуналарда ҳосилдорлик белгиларнинг ўзаро боғлиқлиги .....	69
<b>Матвафаева М., Наралиева Н.М.</b> Бархан кумлари флораси оид янги маълумотлар .....	72
<b>Мираметова Н.П., Данабаева А.Ж.</b> Эколого-физиологические особенности адаптивных реакций организма подростков в условиях Южного Приаралья .....	82
<b>Назарова О.Ж., Хужаев О.Т.</b> Хандон пистанинг фузариоз касаллиги ва уни қўзғатувчи замбуруғнинг айрим биологик хусусиятлари .....	86
<b>Насимова З.Х., Мукумов И.У.</b> Географическое распространение рода Lilium (Liliaceae Juss.) .....	90
<b>Рахимова Т., Садинов Ж.С., Саитжанова У.Ш.</b> Биоргуновы́й тип пастбищ Каракалпакского Устюрта .....	95
<b>Рашидов Н.Э., Ходжаева З.Ф.</b> Денгизқўл зовурининг мавсумий таҳлили .....	99
<b>Саитжанова У.Ш., Полвонов Ф.И., Садинов Ж.С.</b> Современное состояние кейреуково - белоземельнопопынной пастбищной разности (Artemisia terrae-albae, Salsola orientalis) Каракалпакского устюрта .....	101
<b>Сыдык-Ходжаев Р.Т., Амантурдиев Ш.Б., Сабиров А.Г.</b> Научно-исследовательские работы по люцерне в Средней Азии .....	105
<b>Турдиева О.М., Позиллов М.К., Рахматуллаева М.М., Абдулладжанова Н.Г.</b> Токсик гепатитда жигар митохондрияси мембранаси пассив ион ўтказувчанлигига госситан ва гетасан полифенолларининг таъсири .....	110
<b>Умаров Ф.А., Назаров М.Ш.</b> Норин дарёси ихтиофаунаси бўйича дастлабки маълумотлар	115

<b>Усмонов С.П., Бегжанов М.Қ.</b> Фарғона водийси агроценозларида чигирткаларнинг тарқалиши .....	117
<b>Ҳудойбердиева М.О., Мирзаева Г.С., Искандаров А.И., Мусаев Д.М., Холматов Б.Р.</b> Ўзбекистонда тарқалган <i>Deraeocoris Kirschbaum, 1855</i> (Heteroptera:Miridae:Deraeocorinae) авлодига мансуб қандала турлари ва уларнинг молекуляр-генетик таҳлили .....	120
<b>Шаниязов Ш.О.</b> Оценка изменения пространственного распределения лекарственных растений в новых экологических условиях Каракалпакстана .....	127
<b>Эргашев О.Р.</b> Ўрта толали ғўзанинг нав ва тизмалари популяцияларида бир кўсакдаги пахта вазни белгиси кўрсаткичларини намоён бўлиши .....	133
<b>Эшанкулов Б.И., Худайназарова Н.Х.</b> Маҳаллий ва хорижий писта навлари ёнғоқмеваси сифат кўрсаткичлари .....	136
<b>Якубов Ғ.Қ., Жангабаева А.С., Отаев О.Ю., Абдуллаев И.И., Хасанов Ш.Б.</b> <i>Indigofera tinctoria</i> агроценози энтомокомплексларининг шаклланиши .....	141
<b>ТЕХНИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>Хо'jayev O.K., Babajanov B.F., Bekchanov F.A., Ortiqov B.Q.</b> Sun'iy neyron tarmoqlarining hozirgi kunda ilm-fan sohasida tutgan o'rni va ahamiyati .....	145
<b>Аманов Б.Н., Хайдар-Заде Л.Н.</b> Ржаные сорта хлеба с пробиотическими бактериальными препаратами на малых предприятиях Узбекистана .....	149

## BUXORO VILOYATI VA UNGA TUTASH SUVLIK HUDUDLARDA BALIQLARNING TUR TARKIBI VA SONI

*A.R. Rayimov, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*  
*M.M. To'raev, b.f.n., dos., Buxoro davlat universiteti, Buxoro*  
*H.M. Toshev, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*  
*N.M. To'rayeva, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** *Baliqlar dunyosi – biologik xilma-xillikning eng muhim ob'ektlaridan biridir. Turli xil biotik, abiotik va antropogen omillar baliqlar dunyosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. XXI asrga kelib biologik xilma-xillikning keskin ravishda kamayib borishi kuzatilmoqda. Buning natijasida, bioxilma-xillikni saqlash – umumbashariy ekologik muammolardan biriga aylandi. Suv havzalarining barqarorligini ta'minlash, baliqlar bioxilma-xilligini saqlash va zamonaviy usullar orqali baliq mahsuldorligini ko'paytirish muhim sanaladi. Tabiiy va sun'iy suv havzalarining baliqlar holatini aniqlash, monitoringini yuritish, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va istiqbolli turlarini o'rganish ular sonini nazorat qilishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Key words:** *Acipenser nudiventris, Pseudoscaphirhynchus fedtschenkoi, Pseudoscaphirhynchus kaufmanni, Luciobarbus brachycephalus, Ballerus sapa*

**Аннотация.** *Мир рыб-является одним из важнейших объектов биологического разнообразия. Различные биотические, абиотические и антропогенные факторы не перестают оказывать своё негативное влияние на мир Рыб. К XXI веку наблюдается резкое сокращение биоразнообразия. Благодаря этому сохранение биоразнообразия стало одной из общечеловеческих экологических проблем. Важным является обеспечение устойчивости водоёмов, сохранение биоразнообразия рыб и повышение рыбной продуктивности современными методами. Ведение мониторинга состояния рыб природных и искусственных водоёмов, выявление факторов, влияющих на них, изучение перспективных видов, разработка инновационных технологий контроля их численности приобретают в настоящее время все большее значение.*

**Ключевые слова:** *Шир, Сырдарьинский лопатонос, Большой амударьинский лопатонос, Аральский усач, Белоглазка*

**Abstract.** *Fauna of fish species is one of the most important objects of biodiversity. Various biotic, abiotic and anthropogenic factors do not cease to have their negative impact on the ichthyofauna. By the 21st century, there is a sharp decline in its biodiversity. Due to these reasons, the protection of the biodiversity has become one of the globally-important environmental issues. It is also essential to ensure the sustainability of reservoirs, preserve fish biodiversity and increase fish productivity by modern methods. The identification and monitoring of the condition of ichthyofauna in natural and artificial reservoirs, the identification of factors affecting them, the study of promising species, the development of innovative technologies for controlling their numbers are needed significant attention.*

**Key words:** *Acipenser nudiventris, Pseudoscaphirhynchus fedtschenkoi, Pseudoscaphirhynchus kaufmanni, Luciobarbus brachycephalus, Ballerus sapa*

**Kirish.** *Ushbu maqola uchun ma'lumotlar Buxoro viloyatida shakllangan Qoraqir, Zamonbobo, Dengizko'l, Xadicha, Zikri, Devxona, Qumsulton va Oyoq og'itma kabi tashlama ko'llari, To'dako'l, Quyimozor va Sho'rko'l suv omborlari, Amu-Buxoro mashina kanali tarmoqlari hamda, Kogon baliqchilik xo'jaligi hududlarida 2012-2022 yillar davomida olib borilgan kuzatishlar davomida olingan ma'lumotlar asosida bayon etilmoqda. Baliqlarning biologiyasi va ekologiyasi nazariy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganish, baliqchilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash muammosini yechishga yordam beradi. Baliqchilik va baliq xo'jaliklarini har tomonlama rivojlantirish, oziq-ovqat muammosini odilona hal qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyatidagi suv havzalarining hozirgi davrdagi ixtiofaunasini tahlil qilish, baliqlar populyatsiyasining yoshiga va kattaligiga qarab strukturasi*

o'rganish, iqlimlashtirilgan baliqlar bilan tasodifan kelib qolgan baliqlarning biologiyasini va ahamiyatini o'rganish esa suvliklar ov barqarorligining garovidir. Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning tur tarkibi, soni, biotopik taqsimlanishi, ko'payishi, mavsumiy va yillik dinamikasi o'rganilmaganligi hozirgi vaqtning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Buxoro viloyati ekin maydonlari Zarafshon daryosi suvi bilan ta'minlanmaganligi tufayli o'tgan asrning 50 yillaridan keyin Amudaryoga yaqin mintaqalar ekinlarini sug'orish uchun Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro kanallari orqali Amudaryo suvlari Zarafshon daryosiga tutashtirildi va viloyat irrigatsiya tarmoqlari butunlay yangi tizim sifatida ish yurita boshladi. Bir necha bosqichli suv ko'tarish nasos stansiyalari, suv taqsimlagichlar qurilib Buxoro viloyati va Navoiy viloyatlarining Zarafshon daryosi quyi mintaqalari suv ta'minotida tub burilishlar kelib chiqdi, natijada aytilgan kanallar orqali Zarafshon daryosi quyi oqimi suvliklarida ixtiofauna murakkab irrigatsiya hamda kollektorlar tizimlari orqali Qashqadaryo va Amudaryo ixtiofaunasi bilan qo'shilgan holda tarkib topdi.

**Material va metodlar.** Buxoro viloyatidagi suv havzalardan baliqlarni o'rganish uchun material yig'ish jarayoni 2012-2022 yillar davomida olib borildi. Baliqlarni tutish suv havzasining turli nuqtalarida o'tkazildi [1].

Buxoro viloyatidagi suv havzalardan baliq namunalari dala sharoitida katakchasi har xil o'lchamdagi (35,45,55,65 mm) qurama to'rlar bilan olib borildi. Kichik baliqlarni tutishda katakchasi 15-30 mm bo'lgan sachok, katakchasi 8-10 mm bo'lgan brenden to'ri, qurama to'rdan va qarmoqlardan foydalanildi. Tutilgan baliqlar 4% li formalin bilan fiksatsiya qilindi. Shuningdek turli yillarda tutilgan baliqlar kolleksiyalari, xususan BuxDU zoomuzeyida saqlanayotganlardan ham foydalanildi. [8;9;10;11;13]. Yirtqich baliqlarni tutishda qarmoqlardan foydalanildi. Baliqlarning og'irligi elektron tarozida o'lchandi. Baliqlarning tur tarkibini aniqlashda Mirabdullaev va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlardan, baliqlarning ilmiy nomlari va sistematik talqini Dadaev va boshqalar tomonidan chop etilgan adabiyotlardan foydalanib bajarildi [2;3;4;5;6;12].

**Natija va muhokama.** Biz to'plagan dala materiallarining tahlili asosida Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning 2 ta katta turkumiga kiruvchi (Ganoidlar – *Ganoidomorpha*, Suyakdor baliqlar – *Teleostei*) 5 ta turkum (Karpsimonlar – *Cypriniformes*, Osyotrsimonlar – *Acipenseriformes*, Laqqasimonlar – *Siluriformes*, Olabug'asimonlar – *Perciformes*, Kefalsimonlar – *Mugiliformes*), 9 oila (Osyotrlar – *Acipenseridae*, Karplar – *Cyprinidae*, Eshvoylar – *Cobitidae*, Laqqalar – *Siluridae*, Olabug'alar – *Percidae*, Kefallar – *Mugilidae*, Buqabaliqlar – *Gobiidae*, Ilonboshlar – *Channidae*, Eleotriksimonlar – *Eleotrididae*) 45 tur va kenja turi uchrashi aniqlandi (1 -jadval).

1 - jadval

Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning taqsimlanishi (2012-2022 yy.)

No	Baliq turlari	Muhofaza maqomi	Devxona	Xadicha	Og'itma	Dengizko'l	Qora-qir	Sho'rko'l	To'dako'l suv ombori	Quyimozor suv ombori	Amu-Buxoro kanali	Amudaryo
	Sinf. Suyakli baliqlar- <i>Osteichthyes</i>											
	Kenja sinf. Shu'laqanotlilar – <i>Actinopterygii</i>											
	Katta turkum. Ganoidlar – <i>Ganoidomorpha</i>											
	Turkum. Osyotrsimonlar- <i>Acipenseriformes</i>											
	Oila. Osyotrlar – <i>Acipenseridae</i>											
1	Orol bakrasi - <i>Acipenser nudiventris</i> (A)	UzRDB RL CITES I	-	-	-	-	-	-	-	-	-	+
2	Amudaryo katta kurakburuni- <i>Pseudoscaphirychus kaufmanni</i> (A)	UzRDB RL CITES I	-	-	-	+	-	+	+	+	+	+

3	Amudaryo kichik kurakburuni <i>Pseudoscaphirhynchus hermanni</i> (A)	UzRDB RL CITES I	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	+
	Katta turkum. Suyakdor baliqlar- <i>Teleostei</i>													
	Turkum. KarpSimonlar - <i>Cypriniformes</i>													
	Oila. Karplar - <i>Cyprinidae</i>													
4	Qizilko'z- <i>Rutilus rutilus</i> (Q)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
5	Orol qizilko'zi- <i>Rutilus rutilus aralensis</i> (A)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
6	Chizikli tezsuzar- <i>Alburnoides taeniatus</i> (Q)			-	+	+	-	-	-	+	+	-	-	
7	Amur chebakchasi- <i>Pseudorasbora parva</i> (Z)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-
8	Zarafshon oq chebagi - <i>Leuciscus lehmanni</i> (Z)			-	+	-	-	-	+	+	+	+	+	-
9	Qizil labli oq qayroq - <i>Aspius aspius taeniatus</i> (A)			-	-	-	-	-	+	-	-	+	+	
10	Orol mo'ylovli balig'i - <i>Barbus brachycephalus</i> (A)	UzRDB		-	-	-	-	-	+	-	-	+	+	
11	Parrak (nashtarqanot) - <i>Capoetobrama kuschakewitschi</i> (A)	UzRDB		-	-	-	-	-	+	-	+	+	+	
12	Qilich baliq - <i>Pelecus cultratus</i> (A)			-	-	-	-	-	+	+	+	+	+	
13	Oqqayroq - <i>Aspius aspius</i> (A)			-	-	-	-	+	+	+	-	+	-	
14	Cho'rtansifat oqqayroq - <i>Aspiolucius esocinus</i> (A)	UzRDB RL		-	-	-	-	-	+	-	-	+	+	
15	Turkiston qumbalig'i - <i>Gobio gobio lepidolaemus</i> (Q)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-
16	Orol moybalig'i - <i>Chalcalburnus chalcoides aralensis</i> (A)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
17	Samarqand xramulyasi - <i>Varicorhinus heratensis steindachneri</i> (Z)			-	+	+	+	+	+	+	+	-	+	-
18	Turkiston mo'ylovdori - <i>Luciobarbus conocephalus</i> (Z)	UzRDB		+	+	+	+	+	+	+	+	-	+	-
19	Sharq tezsuzari - <i>Alburnoides bipunctatus eichwaldi</i> (Z)			-	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+
20	Oqcha - <i>Abramis brama</i> (A)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
21	Sharq oqchasi - <i>Abramis brama orientalis</i> (A)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
22	Kumush tovonbaliq - <i>Carassius gibelio</i> (Q)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
23	Zog'ora - <i>Cyprinus carpio</i> (Z)			+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
24	Oq do'ngpeshona - <i>Hypophthalmichthys molitrix</i> (I)			+	-	+	+	+	+	+	+	+	-	-
25	Chipor do'ngpeshona - <i>Aristichthys nobilis</i> (A)			-	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-
26	Oq amur - <i>Ctenopharyngodon idella</i> (I)			-	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
27	Qora amur - <i>Mylopharyngodon piceus</i> (A)			-	-	-	-	-	+	+	-	+	+	
28	Qorako'z - <i>Abramis sapa</i> (A)	UzRDB		-	-	-	-	-	-	+	-	+	+	
29	Koreya qirraqorini - <i>Hemiculter leucisus</i> (A)			-	-	-	+	-	+	-	-	-	-	-
30	Oq amur oqchasi- <i>Parabramis pekinensis</i> (Z)			-	-	+	-	+	+	+	-	+	+	
31	Ko'zli taxir baliq- <i>Rhodeus ocellatus</i> (A)			-	-	+	+	-	+	+	+	+	+	-
32	Xitoy soxta qumbalig'i- <i>Abbotina rivularis</i> (A)			-	-	-	+	-	+	-	+	+	+	-
	Oila. Eshvoylar- <i>Cobitidae</i>													
33	Amudaryo yalang balig'i- <i>Nemacheilus oxianus</i> (A)			+	+	-	-	-	+	+	-	+	+	
34	Tibet yalang balig'i- <i>Nemacheilus stoliczkai</i>			-	-	-	-	-	+	-	+	+	+	

35	Sharqiy tojli yalang - <i>Nemacheilus malapterurus longicauda</i> кенжа туп(Q)		+	-	-	+	+	+	+	-	-	+
36	Orol tikanagi - <i>Sabanejewia aurata</i> (A)	UzRDB	-	-	-	-	-	-	+	-	+	-
Turkum. Laqqasimonlar – <i>Siluriformes</i>												
Oila. Laqqalar- <i>Siluridae</i>												
37	Laqqa- <i>Silurus glanus</i> (A)		+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
38	Afrika laqqasi - <i>Clarias griepinus</i> (I)		-	-	-	-	-	-	+	-	+	-
Turkum. Olabug'asimonlar- <i>Perciformes</i>												
Oila. Olabug'alar- <i>Percidae</i>												
39	Oq sla - <i>Stizostedion lucioperca</i> (I)		+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
40	Balxash olabug'asi- <i>Perca schrenki</i> (Z)		-	-	-	-	-	-	+	-	+	+
Oila. Buqabaliqlar- <i>Gobiidae</i>												
41	Bubir buqabaliq'i <i>Knipowitschia caucasica</i> (A)		-	-	-	-	-	+	+	-	-	+
42	Amur buqabaliq'i- <i>Rhinogobius bruneus</i> (A)		-	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Oila. Ilonbosh – <i>Channidae</i>												
43	Ilonbosh- <i>Channa argus</i> (Z)		-	-	+	+	+	+	+	+	+	+
Oila. Eleotriksimonlar – <i>Eleotrididae</i>												
44	Mikroperkops- <i>Micropercops cinctus</i> (Z)		-	-	-	+	+	+	-	-	+	-
Turkum. Kefalsimonlar- <i>Mugiliformes</i>												
Oila. Gambuziyalar- <i>Poeciliidae</i>												
45	Oddiy gambuziya – <i>Gambusia affinis</i> (Z)		+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Izoh:(A)-Amudaryodan o'tgan baliqlar;(Z)-Zarafshon daryosi orqali o'tgan baliqlar; (Q)-Qashqadaryo havzasi orqali kirib kelgan baliqlar. - (I) iqlimlashtirilgan

UzRDB - O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan turlar (kenja turlar) (2019)

RL -Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi(IUCN) ning Qizil ro'yxatiga kiritilgan turlar (kenja turlar) (2004)

CITES I, CITES II - Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi konvensiyasining ilovalariga kiritilgan turlar (kenja turlar).

Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarida qayd qilingan 45 baliq turining 9 turi - (Orol bakrasi - *Acipenser nudiiventris*, Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Amudaryo kichik kurakburuni-*Pseudoscaphirhynchus hermanni*, Orol mo'ylovkori – *Luciobarbus brachycephalus*, Turkiston mo'ylovkori – *Luciobarbus conocephalus*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus*, Parrak (nashtarqanot) – *Capoetobrama kuschakewitschi*, Qorako'z – *Abramis sapa*, Orol tikanagi -*Sabanejewia aurata* O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga, shulardan 4 tur (Orol bakrasi - *Acipenser nudiiventris*, Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Amudaryo kichik kurakburuni-*Pseudoscaphirhynchus hermanni*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus* ) IUCN Qizil ro'yxatiga, 3 tur (Orol bakrasi - *Acipenser nudiiventris*, Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirychus kaufmanni*, Amudaryo kichik kurakburuni-*Pseudoscaphirhynchus hermanni* ) CITES ning I va II ilovasiga kiritilgan [7].

Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarida uchrovchi baliqlar turkumlaridan Karpsimonlar - *Cypriniformes* yetakchi turkum hisoblanib unga 33 tur va kenja turlar kiradi. Qolgan turkum vakillarining ulushi kamroq bo'lib uni 2 – jadvalda ko'rish mumkin.

2 - jadval

**Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda baliqlarning yetakchi turkumlar spektri**

№	Turkumlar	Turlar soni	%
1	Karpsimonlar - <i>Cypriniformes</i>	33	73
2	Osyotrsimonlar – <i>Acipenseriformes</i>	3	6
4	Olabug'asimonlar- <i>Perciformes</i>	6	12
5	Laqqasimonlar – <i>Siluriformes</i>	2	4
6	Kefalsimonlar- <i>Mugiliformes</i>	1	2
	Jami	45	100

Olingan natijalarga ko'ra, Buxoro viloyati va unga tutash suvlik hududlarda aniqlangan 45 tur baliqlardan tur tarkibi bo'yicha eng ko'pi Karpsimonlar - *Cypriniformes* turkumiga 33 tur (73 %), Osyotrsimonlar – *Acipenseriformes* turkumiga 3 tur (6 %), Olabug'asimonlar- *Perciformes* turkumiga 6 tur (12 %), Laqqasimonlar –*Siluriformes* turkumiga 2 tur (4 %), Kefalsimonlar-*Mugiliformes* turkumiga 1 tur (2 %) kiradi(1-rasm).

Keng tarqalgan turlar toifasiga Oq do'ngpeshona - *Hypophthalmichthys molitrix*, Laqqa – *Silurus glanis*, Zog'ora – *Cyprinus carpio*, Orol qizilko'zi- *Rutilus rutilus aralensis*, Oq amur – *Ctenopharyngodon idella* kabilarni kiritish mumkin. Yo'q bo'lish ketish arafasida turgan endemik turlar toifasiga Orol bakrasi - *Acipenser nudiventris*, Amudaryo katta kurakburuni- *Pseudoscaphirhynchus kaufmanni*, Amudaryo kichik kurakburuni- *Pseudoscaphirhynchus hermanni*, Orol mo'ylovdori – *Luciobarbus brachycephalus*, Cho'rtansifat oqqayroq – *Aspiolucius esocinus*, Orol tikanagi - *Sabanejewia aurata* kiradi. Zaif qisqarib borayotgan turlar toifasiga Parrak (nashtarqanot) – *Capoetobrama kuschakewitschi*, Qorako'z - *Abramis sapa*, Turkiston mo'ylovdori – *Luciobarbus conocephalus* kabilar mansubdir.

**Xulosa.** O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Orol dengizi va uning tevaragida kuzatilgan noqulay ekologik holat sharoitida Buxoro viloyati hamda unga tutash bo'lgan hududlarning fauna va florasiyaning holatini tahlil qilish, monitoring va kadastrini yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, hudud suv havzalarining baliqlar populyatsiyasining soni to'g'risidagi yangi ma'lumotlar, region suv havzalarining kadastr informatsion bazasini tuzishda, baliqlarning xilma-xilligi, klassifikatsiyalanishi, son dinamikasi, o'rganilganlik darajasi va baliqlar dunyosini muhofaza qilish, ulardan barqaror foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborotlardan tashkil topadi.

Bugungi kunda baliqlar dunyosi ob'ektlarining davlat kadastr ma'lumotlari, O'zbekistonda, jumladan, Buxoro viloyatida uchraydigan baliqlar umumiy miqdori to'g'risida aniq ma'lumot olish imkonini bermaydi. Shundan kelib chiqib, bu boradagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarimizni yanada jadallashtirish lozim deb hisoblaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Водоемы Узбекистана (без Каракалпакии) и их рыбохозяйственное значение. Тошкент: 1994. Том 1. 18-24, 79-92б.
2. Dadaev S., Saparov K. Umurtqalilar zoologiyasi. Toshkent, 2019. 90-218b.
3. Котляр О.А. Методы рыбохозяйственных исследований (ихтиология). Рыбное, ДФ Астрахань: AGTU, 2004.3-180s.
4. Mirabdullaev I.M., Mirzaev U.T., Kuzmetov A.R., Kimsanov Z.O. O'zbekiston va qo'shni hududlar baliqlari aniqlagichi. Toshkent: Sano-standart, 2011. 3-107 b
5. Mirabdullaev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi. T.:2020. B.4-112.
6. Mirabdullaev I.M., Kuzmetov A.R. O'zbekiston baliqlari sistematikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: ToshDAU, 2021.3-97b.
7. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2- jild. Toshkent, 2019. – 106 - 129 b
8. Тошов Х.М., Шодмонов Ф.К. Эвтрофикационное положение рыбохозяйственных озёр Бухарской области // Ученый XXI века. Россия. 2017. №1.- С. 28-31
9. Toshov H.M. Devxona ko'lining gidrobiologik holati va baliqchilikdagi ahamiyati // Biologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi // Toshkent, 2021. –78-87 b
10. Shamsiyev N.A., Kuzmetov A.R., Toshov H.M. Abdinazarov H.H. Hydrobionts of Devhona and Ayakagitma Lakes in Bukhara region // International Journal of Science and Research(IJSR), 2019. Vol.8(11). -P.1763-1769.
11. Shamsiyev N.A., Kuzmetov A.R., Mirzayev U.T., Shodmonov F.Q., Abdinazarov H.Kh., Toshov H.M. Morpho-Ecological Features Of Pikeperch (Stizostedion Lucioperca) In Lakes Of Ayakagytma In Uzbekistan. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. Vol.12 No. 11 (2021), 3471- 3478.
11. Shernazarov E.Sh., Vashetko E.V., Kreysberg Ye. A., Bikova Ye. A., Xurshut E.E. O'zbekistonning umurtqali hayvonlari. Toshkent, 2006. – 21-35 b.
12. Husenov S.Q., Niyozov D.S. Baliqchilik. Toshkent, 2013. –297-300b.

UDC 639.053.8 (262.54)

### PARASITIC STATE OF HYDROBIONTS OF THE SOUTHERN ARAL SEA REGION

*G.I. Turemuratova, PhD, Karakalpak State University, Nukus*

*A.I. Kurbanova, PhD, Karakalpak State University, Nukus*

*H.S. Nagmetov, student, Irkutsk State Agrarian University, Irkutsk, Russia*

**Аннотация.** Мақола Жанубий Орол денгизи минтақасидаги табиий экотизимларда муҳим рол ўйнайдиган гидробионтларнинг паразит ҳолатига бағишланган.

**Калит сўзлар:** паразит, циклон балиқлар, гастроподлар, фассиолиаз, plankton, сестод, нематодлар, трематодлар, гельминтлар.